

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
“Xavfsizlik” va “Kiberxavfsizlik” atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

АДАБИЙОТШУНОСЛИК

<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldosheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning “Baldan so'ng” hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte “Jeyn Eyr” romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
“Tarixi Rashidiy” asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

ТИЛШУНОСЛИК

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



UO'K: 812.512.133.09.-01.

## O'ZBEK SHE'RIYATIDA ANOR OBRAZINING TADRIJI TAKOMILI

## ОПИСАНИЕ ОБРАЗА ГРАНАТА В УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

## DESCRIPTION OF THE IMAGE OF A POMEGRANATE IN UZBEK POETRY

Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich   
Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori

**Annotatsiya**

Maqolada o'zbek she'riyatida anor obrazining an'anaviylik asosidagi tadrijiy takomili haqida fikr yuritiladi. Kirish qismida olib chiqilayotgan muammoning ahamiyati asoslangan. Adabiyotlar tahlilida esa an'ana va novatorlik haqidagi olimlarning mulohazalari tahlilga tortilgan, metodologik asos sifatida muhim ilmiy-nazariy qarashlar e'tirof etilgan. Muhokama qismida anor obrazining xalq og'zaki ijodidagi badiiy-estetik funksiyasi maqol va xalq qo'shiqlari, yozma adabiyotda an'anaviylik tusini olishi Alisher Navoiy, Uvaysiy, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon she'rlari misolida tahlil etilgan. Maqola oxirida esa izlanish natijada kelingan xulosalar aniq va lo'nda ifodalangan. Foydalanilgan adabiyotlar 13 nomda sanab ko'rsatilgan.

**Abstract**

The article focuses on the gradual improvement of the image of the pomegranate in Uzbek poetry based on traditionalism. In the introduction, the importance of the problem is discussed. In the analysis of literature, the opinions of scientists about tradition and innovation were analyzed, and essential scientific-theoretical views were recognized as a methodological basis. In the discussion part, the artistic-aesthetic function of the image of the pomegranate in the folk creativity is analyzed on the example of proverbs and folk songs, furthermore, its traditionality in written literature is reviewed in the poems of Alisher Navoi, Uvaysiy, Abdulla Oripov, Shavkat Rahmon. At the end of the article, the conclusions which are based on result of the research are clearly and succinctly expressed. References are listed in 13 titles.

**Аннотация**

В статье рассматривается постепенное совершенствование образа граната в узбекской поэзии на основе традиционализма. Во введении обоснована важность проблемы. В части анализ литературы были проанализированы мнения ученых о традициях и новаторствах, а методологической основой признаны важные научно-теоретические взгляды. В дискуссионной части анализируется художественно-эстетическая функция образа граната в фольклоре: пословиц и народных песен, его традиционный вид в письменной литературе на примере стихотворений Алишера Навои, Увайси, Абдуллы Орипова, Шавката Рахмон. В конце статьи четко и лаконично изложены выводы, сделанные в результате исследования. Ссылки указаны в 13 наименованиях.

**Kalit so'zlar:** obraz, an'ana, novatorlik, chiston, lirik she'r, umumfalsafiy kategoriya, xalq qo'shig'i, badiiy-estetik funksiya.

**Key words:** image, tradition, innovation, chiston, lyric poem, universal philosophical category, folk song, artistic-aesthetic function.

**Ключевые слова:** образ, традиция, новаторство, чистон (угадайка), лирический стих, общеполитическая категория, народная песня, художественно-эстетическая функция.

**KIRISH**

Lirik she'riyatda biror obrazning yuzaga kelishi va tadrijiy takomili masalasini o'rganish, avvalo, an'ana va novatorlik masalasi bilan bog'liq bo'lishi ta'kidlash lozim. Adabiyotshunoslikda bir avlod to'plagan, ikkinchi avlod asos sifatida qabul qilgan hamda uni rivojlantirgan adabiy tajribalarni an'ana deyiladi. Aslida "an'ana va novatorlik" ("traditsiya va o'ziga xoslik") umumfalsafiy kategoriya sifatida estetika, falsafa, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixologiya kabi fanlarda ham qo'llaniladi. Lekin badiiy adabiyot, xususan, lirik she'riyatda an'ana va novatorlik masalasi alohida tadqiq etiladi. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida hamda globallashayotgan dunyoga kirib borayotganimiz bugungi davrda an'ana va novatorlik masalasi muhim ilmiy ahamiyatga ega. Bu borada bir qator ishlar qilingan. Lekin so'nggi yillardagi izlanishlar lirik she'riyatdagi an'ana va

## ADABIYOTSHUNOSLIK

novatorlik masalasini ilmiy muammo sifatida o'rganishni taqazo etadi. Bu muammoning aynan anor misolida yoritilishi milliy qadriyat sifatida qadrlanadigan anorning badiiy kontekstdagi badiiy-estetik funksiyalari uzoq yillar davomida rivojlanib, mazmuniy doirasi kengayib kelgani bilan izohlanadi.

**ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA**

Ma'lumki, "an'ana", "novatorlik" atamaları ilm-fanda, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarda faol ishlatiladigan umumfalsafiy tushunchalar bo'lib, ular har biri alohida ma'noga ega. "Traditsiya... dunyoni badiiy idrok etish, bilish va o'zgartirish sohasida davrdan davrga, avloddan avlodga o'tib kelgan, zamon talabiga javob beradigan adabiy tajribalardir. U klassiklarimiz ijodiy laboratoriyasida sinalgan, o'z qimmatini yo'qotmagan, ilg'or estetik idealni, aktual tematikani, tasviriy vositalarni, uslubdagi rang-baranglikni, xalqchil badiiy nutq san'atini keyingi avlod tomonidan qabul qilinib, amalda qo'llanishini nazarda tutadi" [10,26-27]. Adabiyotshunos M.Yunusovning ushbu mulohazasida an'ananing bir nechta muhim xususiyatlari – 1) dunyoni badiiy idrok etish, 2) dunyoni bilish, o'zgartirish; 3) ana shu tajriba va jihatlarni keyingi avlod tomonidan qabul qilinishi va 4) ikki davr yoki avlodni o'zaro bog'lashi; 5) shu yo'l bilan adabiy-badiiy taraqqiyot uzviyligini ta'minlashi haqida fikr yuritilgan. Ko'rinadiki, an'ana madaniy va ma'naviy shaklda bo'lishi mumkin. Bu insonning turmush tarzi, olamni anglashi va bilishi, tajribalari majmuadan iborat bo'ladi.

Rus olimlarining fikricha, "San'atning o'z-o'zidan harakatda bo'lishi uning ichki aloqalari, o'zaro badiiy ta'sir, bog'lanish, ijodiy aloqa va, eng avvalo, "an'ana – novatorlik" munosabati bilan shartlangan bo'ladi" [3,9]. Mazkur fikr vorisilik, ichki aloqa barcha san'at turlarida bo'lishini hamda avlodlar aloqasi, ijtimoiy taraqqiyot uzviy rivojlanishini ham bildiradi. Shu ma'noda adabiyotshunos Yuriy Borev adabiyot boshida folklor an'anasi turiga urg'u beradi va shunday qayd etadi: "Odatda, folklor an'anasi ko'p bosqichli va ko'p genetik asosli xarakterga ega bo'ladi" [7, 146]. Darhaqiqat, nafaqat folklor an'anasi, balki adabiy an'ana ham uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichini boshdan kechirgan va har qanday an'ana asosida birdan ortiq manba yotadi. Shunday bo'lsa-da, adabiy taraqqiyot davomida takomillashib boradi. Buni I. Baltayeva ham ta'kidlagan: "Progress adabiy hodisalarning vorisilik asosida mukammallik tomon siljigidan, an'ana va yangilovchilik (novatorlik)ning o'zaro uzviylikda amal qilishidan iborat badiiy-estetik jarayon sanaladi" [2,32].

Ko'rinadiki, lirik asarlardagi an'ana va novatorlikning uzviyligi doimo ma'lum omilga tayanadi. Zero, "She'riy asarlarda til belgilarini ishlatishning ma'lum an'anasi tarixiy harakatdagi tizimli qoidalarga asoslanadi" [5, 313]. Shundan kelib chiqilsa, lirik asar tilidagi badiiy so'z, xususan, anor kelib chiqishiga ko'ra uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan aniq ramzni anglatadi.

"Mevali daraxtlar yoki ularning ba'zi turlari, ayniqsa ularning mevalari hosil ko'payishiga rag'bat beruvchi, keyinroq esa serhosillik ramzi hisoblangan. Bejizga O'rta Osiy ona-ma'budi, haoit manbai Anaxitaning atributi, urug'i ko'pligi biolan hayron qoldiruvchi anor bo'lmagan. Shu tufayli kelinlar sepidagi so'zanalarda anor sehrli kuchga ega, aniq maqsadlarni ifodalovchi meva sifatida naqshlanmagan" [11.198]. Ko'rinadiki, anor obrazining an'ana tarzda ishlatilishi yoki unga novatorona yondashuv masalasi haqida fikrlar bildirilgan.

**NATIJA VA TAHLILLAR**

Manbalardan ma'lum bo'ladiki, adabiy jarayonning tarixiy taraqqiyoti davomida bir adabiy hodisa ikkinchisiga ta'sir etishi yoki bir badiiy voqelik boshqa biri bilan munosabatga kirishib, adabiy taraqqiyotida an'ana va novatorlik munosabatini yuzaga keltiradi. Bu esa adabiy jarayonning zarurati hisoblanadi. Aslida an'ana va novatorlik, adabiy ta'sir poetikaning o'zak masalalari qatorida turadi. Mazkur masalalar adabiyotshunoslikda qadimdan tadqiq etib kelinadi. Ammo an'naga oylangan hodisa yoki obraz yangi bir ijodkor ijodida boshqa vazifa bajarishi yoki rang-barang ifoda etilishi mumkin. Shuning uchun an'ana, novatorlik masalalari yaxlit nazariy muammo sifatida tadqiq etilishi kerak. Buni biz zamonaviy lirik she'riyatda faol bo'lgan anor obrazi misolida isbotlashimiz mumkin. Chunki qadim zamonlardan xalqimiz orasida anor oila, avlodlar ko'pligi va farovonlik ramziga aylangan.

O'zbek tilining izohli lug'atida anorga shunday ta'rif berilgan: "Anor... 1. Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o'simlik... 2. Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to'la, yumalaoq mevasi... 3. Anor (erkaklar va xotin-qizlar ismi)". [9, 116] Ana shu meva badiiy kontekstga olin kirilgach, an'anaviy ma'nosi va unga shoirlar yuklaydigan badiiy-estetik funksiyasidan kelib chiqib, turlicha ifodalanishi mumkin. Masalan, anor meva sifatida xalqimiz

orasida ancha mashhur bo'lib, u an'anaviy obraz sifatida dastlab folklorda faol bo'lgan. Bunda u oila, ayol, farzand, to'kinchilik, farovonlik ramzi sifatida keladi. Anorning ichida qizil rangli, yoqutga o'xshash dona (urug'i)si ko'pligi, ranggi qizil qonga yaqinligi, tabobatda anorning issiqligi (nor degani olov degan ma'nono bildiradi), tashqi shakli yumaloq, ammo ichida ma'lum bo'lmalarda alohida, ya'ni oilaga o'xshab joylashgani kabi xususiyatlariga tayanib, shoirlar anorni turlicha ma'noda qo'llashlari mumkin. Bunda anor badiiy so'z, metaforik asosda obraz yoki tasviriy vosita sifatida keladi. Bu an'ana qadim zamonlardan xalq og'zaki ijodida ishlatilgan. Xususan, xalq qo'shiqlari tarkibida ko'p qo'llanilgan:

Men bog'ingga bormayman,  
Anoringga tegmayman.  
Endi aqlim kiribdi,  
Yomon bilan yurmayman. [8, 10]

Mazkur bandda bog'–oila, anor esa shu oilaning farzandi sifatida kelib, bizningcha, lirik subyekit endi u yomon farzand yoki oila qurish, sevib, baxtga erishishga arzimaydigan odam bilan yashamasligini ta'kidlaydi. Anorni yosh yigit yoki qiz sifatida kelishi ham xalq qo'shig'ida uchraydi:

Yorning bog'i bor ekan,  
Bog'da anori bor ekan,  
Yolg'iz deb ko'ngil bersam,  
Bo'lak yori bor ekan.[8, 28]

Bu yerda ham bog' oila, anor esa sevilgan odam, xotin kishi ma'nosida kelgan. Banddagi bog' – oila, anor – ayol ma'nosini anglatib, lirik subyekt bir kishiga ko'ngil bergani, uning oilasi va xotini bo'rligini kechroq bilgan haqidagi armonli kechinma ifodalangan. Keyingi xalq qo'shig'ida esa voyaga etgan qiz ma'nosini bildiradi:

Anoring dona-dona.  
Ko'yingda men devona.  
Anjirki boshi lola,  
Har yonda gulu lola [8, 93].

Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, anor sevgan yor, oila manosida faol qo'llanilgan. Anor obrazi keyinchalik yozma adabiyotimizga ko'chgan. Bunda uning an'anaviy obraz sifatidagi mohiyati saqlangan holda, har bir asarda yangi badiiy-estetik vazifa bajarganini kuzatish mumkin. Masalan, Hazrat Alisher Navoiyda anor o'tli, issiq meva ekanligi, guyo olovdek bo'lsa-da, tutuni yo'qligi, tashqi shakli goh olti burchak, goh sakkiz burchak bo'lishini ta'kidlangan. Buni quyidagi bayt bilan boshlangan "Anor" nomli lug'z (chiston) kuzatish mumkin:

Ne mijmardur, to'la axgar, vale ul mujmar andomi  
Erur sun' ilgidin gahe musaddase, gah musamman ham [1, 665].

Lug'zda anorning bir qator farmakologik xususiyatlari ta'kidlanib, she'r oxirida, "*Nechakim tab'i noridur, va lekin me'da norig'a / Berur taskin, munung naf'in topibmen voqian men ham*", deya avtobiografik ma'lumot singdirib yuborilgan. Ya'ni Alisher Navoiy oshqozoni og'rib, anordan foyda topgani aytilgan. Shu yerda hazrat Alisher Navoiy "*Bir anor ming bemorga davo*" [13, 388] degan xalq maqolidagi mazmundagi an'anaviylikni saqlagan holda, unga yangicha yondashishga harakat qilishgan. Demak, an'anaviy obraz bu yerda tabobat nuqtai nazardan ham tasvirlangan.

Endi Jahon otin Uvaysiyning mashhur "Anor" chistonini ham olaylik. Bu asar ham topishmoq ekanligi bilan Alisher Navoiy asariga yaqin turadi. Unda ham an'anaviy ravishda anor obrazi tasvirlangan. Ammo Uvaysiy anor obrazini yaratishda novatorona yodoshib unga ijtimoiy muammoni singdirgan:

Ul na gumbazdur: eshigi, tuynugidin yo'q nishon,  
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon.  
Sindurub gumbazni, qizlar holidan olsam xabar,  
Yuzlarida parda tortig'liq, tururlar bag'riqon [4].

Mazkur she'r to'rtlik shaklida bitilgan bo'lib, unda anor obrazi metaforik asosda olam, jamiyat ma'nosi bildiradi. Bu yerda ayollarning haqsizliklari, ijtimoiy jamiyatda ayollarning shaxs sifatidagi erki, ozodligi cheklanganini ta'kidlaydi. Shu yerda anor ayol obrazi ham bildirib, u xalq qo'shiqlaridagi vazifasiga aynan yaqin keladi. Ammo shoira unga yangi vazifa yuklaydi. Bu ayollarning jamiyatda haqsizlikka uchrashini bildirishida yuzaga chiqqan. Demak, Uvaysiy anorning

## ADABIYOTSHUNOSLIK

leksik ma'nosi va tabiatini saqlagan holda, uni boshqa mazmun yuklay olgan. Shu yerda anor an'anaviy obrazi ifodada novatorlik kasb etgan. Anor obraz sifatida zamonaviy o'zbek she'riyatida, xususan, Abdulla Oripov ijodida ham uchraydi. Bir o'rinda shoir anorni xalq mehnatkashligi, fidoiyligi, saxiyligini ifodalash maqsadida quyidagi satrlarni bitgan:

Bir ne'mat bo'lsin deb qallda qonni ham  
Anor donasiga joylagan jonsan. [12, 146].

Bu yerda metaforik asosda xalq xarakterining muhim qirrasini yaratgan. Qon va anor suvidagi o'xshashlik, xalq fidoyiligi, do'stlariga eng so'nggi nonini ham berishga tayyorligi yaxlitlashib, o'zbek xalqining fidoyi ekanligini ochishga xizmat qilgan. Demak, bu yerda an'anaviy anor obraz yangi vazifa olgan. Lekin shoir "Xotira" she'rida anorning oila, farzand ma'nosini bildiruvchi an'anaviy ramziga qaytgan. She'ning boshlanishida lirik subyekt murojaat qilayotgan obraz yo'lchi qushga, sirli tushga qiyoslanadi. Bu bilan lirik subyekt mazkur qahramon uning umriga bir zum kirib chiqqani, tushdek xotirasida qolganiga ishora qiladi hamda she'r oxirida nola bilan, marsiya tarzida murojaat qiladi:

Anor donasidek qatoring qatoring o'rtab,  
Bag'rimdan sitilib ketding-ku, bolam... [12, 269]

She'r mazmuni bevaqt vafot etgan farzand dog'l haqida bo'lib, shoir shu yerda anorni oilaga, uning donasini esa farzandga qiyoslaydi. Bu anorning an'anaviy ramzi bo'lib, shoir an'anaga qayta murojaati orqali lirik subyekt armon, sog'inchlarini ifodalagan.

Ma'lumki, ijodiy jarayon doimiy rivojlanib, o'sib, o'zgarib boradi. Shoirlar an'anaviy obrazga yangicha ma'no, yangi badiiy-estetik funksiya yuklashga harakat qilishadi. Natijada obrazning tadrijiy takomili, yangicha hayoti davom etaveradi. Buni Shavkat Rahmonning quyida she'ri misolida kuzatish mumkin:

Tutilgan oy, qadimgi  
fanorsan, anor.  
Yoqut to'la qip-qizil  
qanorsan, anor.  
Goh qorol, gohida  
Pushtisan, anor.  
Yerning qonga bo'yalgan  
Mushtisan, anor [6, 384].

Bir qarashda "Qasida" nomli ushbu she'rda Shavkat Rahmon anorga tavsif beradi. Ammo teranroq tahlil qilinsa, unda metaforik tarzda hayot, tiriklik mohiyati haqida fikr boradi. Ya'ni shoir birinchi qatorda qadimda kulollar anor shaklida yaratgan sopol chiroq va uning tundagi ko'rinishiga ishora qiladi. Bunda chiroq ichidagi sham oyga qiyoslangan. Shu yerda mazkur satrning ikkinchi mazmuniy qatlami ham ko'rinadi. Bu bulutlar ortidagi oy, ba'zan nim qizil bo'lishi, va uning ham yamaloqligi anorga mengzatilgan. Keyingi misrada esa aniqni yoqutlar bilan to'la qanorga o'xshatilar ekan, shoir qanor va anor so'zlarining ohangdoshligi yordamida she'r badiiy-estetik ta'sirini yanada kuchaytirishga erishgan. Ikkinchidan, anor va qanor ham tashqi ko'rinishidan – rangi, yumaloqligi va har ikkalasining ham ichi to'laligiga ishora qilgan. Oxirida esda anor detaliga isyonkorlik, Ozodlik uchun kurashuvchi obraz ma'nosi singdirilgan. Shu yerda Uvaysiyning alamli, nohaq azoblangan ayollar haqidagi fikri (*yerning qonga to'la mushtisan*) anor timsolining mantiqiy davomi deyish mumkin.

**XULOSA**

1. Shoirlar badiiy so'z, obrazli ifodalar yaratishda anor so'ziga avval an'anaviy obraz, keyin esa obrazli ifoda yaratish vositasi sifatida qarashgan. Natijada bir ana'anaviy obraz turlicha yangi vazifalarni bajargan.

2. O'zbek lirikasida anor obrazi uzoq tarixga ega bo'lib, u xalq turmush tarzi, badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti alohida ahamiyatga. Shoirlar anor obrazini an'anaviy ma'nosidan faol foydalanib keoishadi. Shuningdek, anor obraziga yangicha badiiy funksiyalar ham yuklanadi. Bu esa she'r mazmunidagi salmog'ni oshiradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Биринчи том. Бадойиъ ул-бидоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
2. Baltayeva I.T. Hozirgi o'zbek adabiyotidagi adabiy vorislik an'alarining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filolog.fan.doktori (DSc) avtoreferati. – 2024. – 80 b.
3. Боров Ю. Теория литературы в 4-х томах. Том IV. Литературный процесс.— М., ИМЛИ РАН, 2001. — 624 с.
4. Jahon otin Uvaysiy. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).kutubxonasi
5. Поэтика: слов, актуал. терминов и понятий / [гл. науч. ред. Н.Д. Тамарченко]. — М.: Издательство Кулагиной; Intrada, 2008. — 358 с.
6. Раҳмон, Шавкат. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
7. Топорков А.Л. Теория литературы в 4-х томах.Том III. Роды и жанры (основные проблемы в историческом освещении). – М.: ИМЛИ РАН, 2003. – 592 с.
8. Ўзбек халқ ижоди: қўшиқлар. Қўп томлик. Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – 332 б. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
9. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasi. 6 jildli. Birinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 964 b.
10. Юнусов М. Традиция ва новаторлик / Коллектив. Адабиёт назарияси (Адабий-тарихий жараён). Икки томлик. II том. – Тошкент: Фан, 1979. – 448 б.
11. Снесарев Г.П. Реликты домусуньманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – Москва: Наука, 1969. – 338 с.
12. Орипов А. Танланган асарлар: 4 жилдлик. 1-жилд. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 432 б.
13. O'zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. M usoqulov, B. Sarimsoqov. — Toshkent: Sharq, 2005. — 512 b.